



## NAY CHOLG'USI SAN'ATI TARIXI VA IJROCHILIK MASALALARI

---

**X. K Aripov**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy Musiqa san'ati instituti  
"Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedراسи dotsenti*

Cholg'u ijrochiligi an'analari bu asrlar davomida ustoz - shogird silsilasi orqali bizga yetib kelmoqda. Milliy cholg'ularimiz yillar va asrlar mobaynida nola va sadolari orqali qalblarga orom baxsh etmoqda. Aslida xar bir cholg'udan chiqayotgan sado insonning ruhiyatiga butun turmushiga ta'sir etadi. Bejiz buyuk olimlarimiz musiqa san'ating tovush hosil qilish masalalari, tovushlar orasidagi nisbatlarga kuchli e'tibor qaratishganki, musiqiy tovushlardan chiqayotgan sado insonga so'siz ta'sir etadi.

Nay nolasi haqida ham biz yillar davomida olgan tajribamiz orqali to'xtalib o'tsak nay sadosi insoning qalbi butun vujudidan chiqayotgan dardu alamning kechinmalarning tashqariga nay orqali chiqayotgan ko'rinishidir

O'zbek xalq musiqa merosining an'anaviy ijrochilik sohasiga murojaat etar ekanmiz, hozirda serqirra, serjilo hamda sayqal topgan pallaga yetib kelganligini inkor etib bo'lmaydi. Musiqa san'ati insoniyat ma'naviyatining kalitidir. Musiqa orqali dunyoni anglash, tushunish doimo o'zining ijobatini topib kelgan. Shuning uchun hayotda musiqa bilan oshno bo'lgan, musiqaning sehrli sadolaridan baxramand bo'lgan insonlargina ezgu ishlarga qo'l urganlar. Zero musiqa ijodiyotning ilxomlantiruvchi kuchi hamdir. Shu bois bo'lsa kerak, o'tmishda yashab ijod etgan, olimu fuzalolar, shoiru adiblar, musiqa bilan oshno bo'lishga harakat qilganlar. Uning siru asrorlaridan chuqurroq boxabar bo'lish uchun uringanlar. Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda «Shodlik oshiruvchi xonanda, g'amni tarqatuvchi sozanda. Bularning har ikkisiga hissiyotga berilgan kishilar va ahli dardlar jon fido qiladilar. XIII asrda yashab ijod etgan tasavvuf ilmining yo'l boshchilaridan biri Jaloliddin Rumi hazratlarining O'n yetti ming misradan iborat «Masnaviy»sida: «Tingla nay, andoq hikoyatlar qilur» deb ko'hna sozlardan nay cholg'usiga alohida ta'rif berilgan.

Nay ijrochiligi tarixiga nazar solar ekanmiz, Abduqodir Ismoilov, Ayub Qodirov, Saidjon Kalonov, Usmon qori kabi benazir naychi sozandalarni asosan yakka ijrochi sifatida el orasida mashxur bo'lganliklarini guvohi bo'lamiz.

XX asrning 20-yillaridan boshlab nay sozandalar ansambli tarkibida munosib o'rinni topdi, ommalashdi va bu cholg'uda mohir sozandalar yetishib



chiqdilar. Yu.Rajabiy, R.Hamdamiyov, M.Muxammedov, D.Soatqulov, I.Qodirov, M.Toirov, G'.Jo'rayev, A.Sobirov, A.Abdurashidovlar shular jumlasidandir. Nay sozining tarixiy shakllanishi, mashxur ustoz naychi ijrochilar nomlari bilan bog'liq bo'lib, har davrning ulug' ustoz naychi sozandalari o'zlarining betakror ijrolari bilan, nay cholg'u sozining bugungi mukammallashuviga olib kelganlar. Musiqa durdonalarini ijro etib, shu soz uchun xos bo'lgan asarlar yaratib, yangi shogirdlar tarbiyalashdagi xizmatlari beqiyos.

Nay cholg'usining imkoniyati kengligi va ijro mahorati jixatidan jaxon sahnalaridagi nufuzli sozlardan qolishmaydi. Nay o'zbek xalqining puflab chalinadigan yog'ochli asboblari orasida keng texnik imkoniyatlariga ega bo'lgan musiqa asbobidir. Lekin, har bir cholg'u o'zining tabiati, imkon chegarasi, xususiyati va o'ziga xos sifatlariga egadir. Shu nuqtai nazardan nay cholg'usi o'ziga xos siru sinoatlari bilan birga o'zgacha tarovati bilan ajralib turadi. Nayning sersayqal, jozibali va go'zal ijrosiga erishish sozandadan yuksak mahorat va chuqur bilim egasi bo'lishni talab qiladi. Akademik yo'nalishdagi Xalq cholg'u ijrochiligi yo'llarida ijro qilishda nayda ko'proq fleyta, damli cholg'ular uslubiga yaqin tarzda ijro qilinadi. Bunda cholg'u imkoniyatini ko'rsatishda turli xildagi shtrixlardan va qochirimlardan foydalaniladi. Akademik yo'nalishda nayda stakkato va legato, non legato, portamento shtrixlari ishlatiladi.

Nay sozining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ijro paytida ko'proq orkestr yoki fortepiano sozlari hamohangligida ijro etilgani uchun notada yozilgandan tashqariga chiqilmaydi, ijrochi tomonidan notadan tashqari asarni bezaklar qo'shib ijro etish ruxsat etilmaydi. Ushbu yo'nalishda asar xarakteridan kelib chiqib, tovush kuchuni o'zgartiruvchi belgilar hamda shtrixlar asosida ijro qilinadi.

Xulosa qilib aytish joizki Nay cholg'usi o'ziga xos soz bo'lib, tovush hosil qilish bo'yicha «xushtaksimom» cholg'ular oilasiga mansub. Tovush hosil qilish vaqtida, cholg'uchi tomonidan puflangan kuchli nafas to'lqini nay teshigining o'tkir qirrasiga uriladi va u yerda kesiladi. Nay ichiga kirgan nafas yo'nalishi u yerda aylanna harakat hosil qilib, nay ichiga qamalgan havo ustuninni harakatga keltiradi va tovush hosil bo'ladi. Nay sozi ijrochidan nafaqat mohirona chalish balki, ijro madaniyatini, psixologik holatni, gavda holatini to'g'ri ushlashni, diqqatni jamlay bilishni taqazo etadi.

Ijro vaqtida nay cholg'usi lab kesmasiga parallel holatda turishi kerak. Bosh va gavidani (qomatni) to'g'ri tutish zarur. Tirsaklar yengil ko'tarilgan, yelkalar kerilgan, simmetrik, erkin holatda bo'ladi. Bularning hammasi ko'krak qafasining erkin bo'lishini va shu bilan birga erkin nafas olishni ta'minlaydi. Bu tananing to'g'ri



vaziyati bo‘lib, unda ijrochining salomatligi (umurtqa pog‘onasidagi o‘zgarishlar)ni muxofaza qilishga imkoniyat yaraladi. Sozanda nayni o‘tirib chalganda, oyog‘larini bir-biriga chalishtirib o‘tirishga ruxsat etilmaydi. Chunki, bu holat nafas olishga yomon ta’sir ko‘rsatadi va diqqatni susaytiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ishoq Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. T.: 1963y.
2. Ishoq Rajabov. Maqom asoslari. T.: 1992y.  
Is‘hoq Rajabov. Maqomlar
3. O.Ibrohimov. O‘zbek xalq musiqa ijodi T.: 1994y.
4. R.Yunusov. O‘zbek xalq musiqa ijodi III- qism T.: 2000yil.
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 5-jild. T.:2003y.
6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 7-jild. T.:2004y.
7. O. Matyoqubov. Maqomot. T.: “Музыка” 2004 y.
8. Shashmaqom saboqlari T.: 2005y.
9. Ravshan Yunusov. Sharq xalqlari maqomlari.T.: 2022y.
10. Abdurauf Fitrat. O‘zbek klassik muzikasi va uning tarixi. T.: “Fan” 1993y.
11. Shahnoza Oyxojaeva. Maqom taronalari. T.: 2011y.
12. Yunus Rajabiy. Muzika me’rosimizga bir nazar. T.: 1978y.